



JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH USULLARI, SHAKLLARI VA ASOSIY TAMOYILLARI VA ULARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMIDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

Bobomurotova Manzura

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-1705-4900

m.bobomurotova@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish usullari, shakllari va asosiy tamoyillari keltirilgan. Soliqqa tortish usullari, shakllari va tamoyillari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, progressiv va proporsional soliqlarning adolatli taqsimotga ta'siri hamda investitsion daromadlarga nisbatan soliqlarning o'рни muhokama qilingan. O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirishda soliqqa tortish usullari, shakllari va tamoyillarining istiqbollari asoslangan. Maqolada daromad solig'i yig'ish mexanizmlarining samaradorligi va adolatlilik darajasi iqtisodiy barqarorlik va byudjetga tushumlar nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslar daromad solig'i, progressiv soliq stavkasini, soliq tizimi, soliq imtiyozlari va chegirmalar, soliqqa tortish usullari, soliq tortish shakllari, tamoyillar, kapital daromadga soliq, soliq siyosati, byudjet daromatlari, O'zbekiston soliq islohoti.

МЕТОДЫ, ФОРМЫ И ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ДОХОДОВ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ И ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ЗНАЧЕНИЯ В СИСТЕМЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ

Бобомуратова Манзура

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье представлены методы, формы и основные принципы налогообложения доходов физических лиц. Освещаются методы, формы и принципы налогообложения, а также их социально-экономические последствия. Также обсуждалось влияние прогрессивных и пропорциональных налогов на справедливое распределение, а также роль налогов в отношении инвестиционного дохода. В основе совершенствования налоговой системы Узбекистана лежат перспективы методов, форм и принципов налогообложения. В статье проанализирована эффективность и степень справедливости механизмов сбора подоходного налога с точки зрения экономической стабильности и поступлений в бюджет.

Ключевые слова: налог на доходы физических лиц, прогрессивная налоговая ставка, налоговая система, налоговые льготы и вычеты, методы налогообложения, формы налогообложения, принципы, налог на доход от капитала, налоговая политика, доходы бюджета, налоговая реформа в Узбекистане.

METHODS, FORMS, AND BASIC PRINCIPLES OF TAXATION OF INDIVIDUAL INCOMES AND ISSUES OF ENHANCING THEIR IMPORTANCE IN THE TAXATION SYSTEM

Bobomuratova Manzura

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article presents methods, forms and basic principles for taxing the income of individuals. Methods, forms and principles of taxation and their socio-economic impact are covered. The effect of progressive and proportional taxes on fair distribution and the role of taxes on investment returns have also been discussed. In improving the tax system of Uzbekistan, the prospects for taxation methods, forms and principles are based. The article analyzes the effectiveness and fairness of income tax collection mechanisms from the perspective of economic stability and budget revenues.*

Keywords: *personal income tax, progressive tax rate, tax system, tax benefits and deductions, taxation methods, forms of taxation, principles, capital gains tax, tax policy, budget revenues, tax reform in Uzbekistan.*

Kirish.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon, davlat byudjetini shakllantirishda asosiy omil bo'lib, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Soliqqa tortishning samarali usullari va shakllari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va islohotlarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Soliqqa tortish tizimining tartibli va adolatli tashkil etilishi, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va soliq to'lash madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning samarali usullari va tamoyillarini qo'llash, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Soliqqa tortishning samarali usullari va shakllari, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda, soliqqa tortishning asosiy tamoyillari - odillik, shaffoflik, samaradorlik va barqarorlik, muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu paragrafda, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning turli usullari, shakllari va tamoyillari haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar usullar, shakllar va tamoyillar va davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash masalalari bilan uzviy bog'liq holda keng ko'lamda o'rganilmoqda. Mamlakatimizda soliqqa tortishda qo'llaniladigan soliqqa tortish usullari, shakllari va tamoyillarini chuqur tahlil qilish uchun asosiy nazariy hamda amaliy manbalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon miqyosida tan olingan iqtisodchi olimlardan biri Feldshteynning (1971) "Tax Policy, Corporate Saving and Investment Behavior in Britain" nomli kitobida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yuqori stavkalari kapitalning chetga chiqishiga va iqtisodiyotga yetarlicha sarmoya kiritilmasligiga olib kelishi mumkinligi hamda uning byudjet daromadlari manbai sifatidagi rolini ilmiy asosda yoritib beradi.

Jahon miqyosida tan olingan iqtisodchi olimlardan biri Musgreyvning (1989) "Public Finance in Theory and Practice" asarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining moliyaviy qayta taqsimotdagi va ijtimoiy barqarorlikdagi o'rni teran tahlil qilingan. Muallif daromad soliqlarining progressiv shaklda tashkil etilishi orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash imkoniyatlari hamda uning byudjet daromadlari manbai sifatidagi rolini ilmiy asosda yoritib beradi.

OECD (2023) tomonidan har yili chop etiladigan "Tax Policy Studies" to'plamlarida esa xorijiy adabiyotlarda daromad solig'ining murakkab va proporsional tizimlari mavjudligi keltiriladi. Ushbu hisobotlar mamlakatlar kesimida soliq tizimlarining samaradorligini baholashda muhim manba hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda soliq tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Professor Haydarovning (2007) "Soliqlar va soliqqa tortish masalalari" deb nomlangan kitobida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni ikki turga ajratadi. Uning fikricha, jismoniy shaxslarning ayrim daromadlarini soliqqa tortilishi mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir etishini ta'kidlaydi.

Professor Qiyosovning (2023) "Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari" nomli monografiyasida jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq nafaqat jismoniy shaxslardan olinadigan asosiy soliq turlaridan biri, balki soliq orqali tartibga solish amaliyotini qo'llashning o'ziga xos sohasidir va bu orqali joriy etish imkoniyatlari ilmiy asosda bayon etilgan.

Yuqorida qayd etilgan manbalar jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq tizimlarini ilmiy va amaliyot jihatidan chuqur tahlil qilishda asosiy nazariy va statistik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali jismoniy shaxslarni soliqqa tortishdagi muammolarni tahlil qilish, hamda O'zbekiston soliq amaliyoti uchun munosib xulosalar chiqarish mumkin.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon, davlat byudjetini shakllantirishda asosiy omil bo'lib, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Soliqqa tortishning samarali usullari va shakllari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va islohotlarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Soliqqa tortish tizimining tartibli va adolatli tashkil etilishi, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va soliq to'lash madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning samarali usullari va tamoyillarini qo'llash, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Soliqqa tortishning samarali usullari va shakllari, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda, soliqqa tortishning asosiy tamoyillari - odillik, shaffoflik, samaradorlik va barqarorlik, muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu paragrafda, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning turli usullari, shakllari va tamoyillari haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Turli mamlakatlarda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning turli usullari qullaniladi. (1-rasm)

1. Progressiv soliq shkalasi. Bu usul daromadning oshishi bilan soliq stavkasining oshishini nazarda tutadi. Daromad qanchalik yuqori bo'lsa, soliq ulushi shunchalik yuqori bo'ladi. Progressiv shkala bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin va har bir bosqichda turli soliq stavkalari qo'llaniladi.

2. Proporsional (chiziqli) soliqqa tortish usuli. Bunday holda, soliq stavkasi daromad darajasidan qat'i nazar, doimiy bo'lib qoladi. Misol uchun, proporsional soliq stavkasi 15% bo'lsa, unda siz topgan har bir dollar 15% soliqqa tortiladi.

3. Regressiv soliq shkalasi. Bunday holda, soliq stavkasi daromadning oshishi bilan kamayadi. Bu keng tarqalgan usul emas, chunki u odatda ijtimoiy adolat tamoyillariga zid keladi, chunki u kam daromadli odamlarni boyroq odamlarga qaraganda o'z daromadlarining yuqori foizini soliqqa to'lashiga olib keladi.


4. Xarajatlardan olinadigan daromad solig'i (progressiv iste'mol solig'i). Bunda soliq daromaddan emas, balki iste'molga sarflangan summadan undiriladi. Bu, odatda, yuqori baholi tovarlar va xizmatlarga nisbatan qo'llaniladigan savdo soliqlari yoki hashamatli soliqlarni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Kombinatsiyalashgan usullar. Ko'pgina mamlakatlar shaxsiy daromadlarni soliqqa tortishning turli usullari kombinatsiyasidan foydalanadilar. Masalan, ular asosiy daromadlar bo'yicha progressiv soliqqa tortish va daromad yoki xarajatlarning alohida turlari bo'yicha qo'shimcha soliqlardan foydalanishlari mumkin.



1-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish usullari

Har bir soliqqa tortish usulining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, u yoki bu usulni tanlash muayyan davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatiga bog'liq.



2-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning bevosita usullari

Soliqqa tortishning bevosita usullari ikki turga bo'linadi: progressiv va proporsional. Progressiv soliqqa tortish usulida soliq stavkalari daromadning oshishi bilan birgalikda ko'tariladi. Bu esa ko'proq daromad olgan shaxslarning kam daromad olgan shaxslarga nisbatan ko'proq soliq to'lashini anglatadi. Progressiv soliqqa tortishda daromad darajasi inobatga olinadi, ya'ni kam ta'minlangan qatlamlar kamroq soliq to'laydi, yuqori daromadli qatlamlar esa ko'proq soliq to'laydi. Bu usul daromad darajasini inobatga olgan holda adolatli soliq yukini taqsimlashga yordam beradi va daromadlar o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytiradi.

Proporsional soliqqa tortishda esa barcha soliq to'lovchilar o'z daromadlaridan bir xil foizda soliq to'laydilar. Bu soliq hisobini va yig'imini osonlashtiradi, lekin daromad darajasini inobatga olmagan sababli adolatli bo'lmasligi mumkin. Proporsional tizimda qat'iy soliq stavkalari qo'llaniladi, ya'ni ular daromad miqdoriga qarab o'zgarmaydi. Bu tizimning shaffofligi va soddaligi uning asosiy afzalliklari bo'lsa-da, notenglikni oshirish xavfi mavjud.


Progressiv soliqqa tortish tizimi adolatli va jamiyatdagi notenglikni kamaytirishga qaratilgan. Bu usul daromad darajasini inobatga olish bilan aholining kam ta'minlangan

qatlamlariga yengillik beradi. Lekin bu tizimning boshqaruvi qiyin bo'lishi mumkin va yuqori stavkalar soliqlardan qochishni rag'batlantirishi ehtimoli bor.

Proporsional soliqqa tortish tizimi esa soddaligi va shaffofligi bilan ajralib turadi. Soliq stavkalari qat'iy bo'lgani sababli, bu tizimni administratsiyashtirish oson bo'ladi. Biroq, u daromad darajasini inobatga olmaydi va jamiyatdagi notenglikni oshirishi mumkin.

Soliqqa tortish usullarini tanlash davlatning soliq siyosatidan kelib chiqadi. Progressiv tizim adolatlilikni ta'minlasa, proporsional tizim soddaligi va shaffofligi bilan ajralib turadi. Har bir tizimning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olib, soliq siyosati bo'yicha qaror qabul qilish zarur.

Xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning bilvosita usullari asosan quyidagilardan iborat:



3-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning bilvosita usullari

Soliqqa tortishning bilvosita usullari turli soliq imtiyozlari va boshqa choralar orqali amalga oshiriladi. Ularning asosiy maqsadi daromadlar va boshqa moliyaviy foydalanishlarni samarali tarzda taqsimlashdir.

Soliq imtiyozlari turli xilda bo'lishi mumkin va ularning har biri turli maqsadlarga xizmat qiladi. Belgilangan soliq imtiyozlari muayyan summa yoki foizda belgilanadi va ular soliq to'lovchilarning soliq yukini yengillatishga qaratilgan. Bu turdagi imtiyozlar ko'pincha ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan xarajatlarni hisobga oladi. Maqsadli imtiyozlar muayyan maqsadga yo'naltirilgan xarajatlarni kamaytirish uchun belgilanadi. Masalan, ta'lim yoki sog'liqni saqlash xarajatlari uchun berilgan imtiyozlar. Maxsus imtiyozlar turli xil soliq yukini yengillatish uchun qo'llaniladi va ular odatda maxsus sharoitlarda, masalan, fuqarolarning muayyan qatlamlariga (masalan, nogironlar, nafaqaxo'rlar) mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Boshqa usullar soliqqa tortishning turli mexanizmlarini o'z ichiga oladi, bu esa turli daromad manbalaridan samarali soliq yig'ishga yordam beradi. Kapital daromadlariga soliqlar ko'proq moliyaviy aktivlar va investitsiyalardan olingan foydaga soliq to'lashni o'z ichiga oladi. Bu turdagi soliqlar davlat byudjetiga qo'shimcha daromad olishga yordam beradi va moliyaviy bozorlardan olingan daromadlarning adolatli taqsimlashini ta'minlaydi.

Soliqqa tortishning bilvosita usullari soliq yukini adolatli va samarali taqsimlashga yordam beradi. Belgilangan, maqsadli va maxsus imtiyozlar orqali soliq to'lovchilarning ayrim xarajatlarni hisobga olish va yengillatish mumkin. Boshqa usullar, xususan, kapital daromadlariga soliqlar orqali davlat byudjetiga qo'shimcha daromad olib kelish mumkin. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olish zarur, chunki ularning har biri turli ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga xizmat qiladi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish shakllari quyidagilardan iborat:

1. Deklaratsiya tizimi. Soliq solishning ushbu shaklida jismoniy shaxslar o'z daromadlari to'g'risida o'zlari deklaratsiya qilishlari va shu deklaratsiya asosida soliq to'lashlari shart. Ular soliq organlariga o'z daromadlari va hisobdan chiqarish xarajatlari to'g'risida ma'lumot beradi.

2. Avtomatik soliq imtiyozlari. Soliq solishning ushbu shakli bo'yicha soliqlar ish beruvchi yoki to'lovchi agent tomonidan jismoniy shaxsning ish haqi yoki boshqa daromad turlaridan bevosita ushlab qolinadi va davlat byudjetiga o'tkaziladi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning deklaratsiya tizimida, jismoniy shaxslar o'z daromadlari va xarajatlarini mustaqil ravishda deklaratsiya qilib berishadi. Bu usul moliyaviy vaziyatni aniqroq hisobga olishga va barcha mavjud soliq imtiyozlaridan foydalanishga imkon beradi. Lekin, bu jarayon murakkab va ko'p vaqt hamda intellektual resurslarni talab qiladi, shuningdek, deklaratsiyani to'ldirishda xatolar qilish ehtimoli ham yuqori.

Avtomatik soliq imtiyozlari tizimida soliqlar ish beruvchi yoki to'lovchi agent tomonidan avtomatik ravishda ushlab qolinadi, bu esa soliq to'lash jarayonini osonlashtiradi va soliq to'lashdan qochish ehtimolini kamaytiradi. Soliqqa tortishning ushbu shakli soddaligi va shaxslarning kamroq ishtiroki bilan ajralib turadi. Ammo, ushbu usul agentlar tomonidan xatolar qilish ehtimoli tufayli noaniq bo'lishi va barcha mavjud soliq imtiyozlaridan to'liq foydalanishni cheklashi mumkin.

Shunday qilib, har ikki soliqqa tortish shakli o'zining afzallik va kamchiliklariga ega. Deklaratsiya tizimi o'z daromadlari va xarajatlarini aniqroq deklaratsiya qilishga tayyor bo'lgan va soliq imtiyozlaridan to'liq foydalanishni istaganlar uchun mos keladi. Avtomatik soliq imtiyozlari esa jarayonni soddalashtirishi uchun uchun afzal, garchi bu aniqlik va imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin bo'lsa ham. Qaysi soliqqa tortish shaklini tanlash shaxsning individual talab va shart-sharoitlariga bog'liqdir.

Shuningdek, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi quyidagilarga bo'linadi:

1. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi. Ushbu soliqqa tortish shakli kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq solishni soddalashtirish uchun mo'ljallangan. U soliqlarni hisoblashning soddalashtirilgan tartiblarini va bir qator buxgalteriya hisobi va hisobot majburiyatlaridan ozod qilishni taklif etadi.

2. Umumiy soliqqa tortish tizimi. Ushbu soliqqa tortish shakliga ko'ra, jismoniy shaxslar o'z daromadlari va xarajatlari to'g'risida batafsil hisobot taqdim etishlari shart. Ular turli xil soliq imtiyozlari va imtiyozlaridan foydalanishlari mumkin, lekin bundan tashqari, yanada murakkab soliq tartib-qoidalariga rioya qilishlari kerak.

3. Aralash soliqqa tortish tizimi. Soliqqa tortishning bu shakli soddalashtirilgan va umumiy soliqqa tortish tizimining elementlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, soliq to'lovchilarga o'z ehtiyojlariga mos keladigan soliqqa tortish aspektlarini tanlash imkonini beradi.

Ularning farqi shundaki, soliqqa tortish usullari soliqlarning tuzilishi va hisob-kitoblarini belgilaydi, soliq shakllari esa soliq to'lovchilar o'z daromadlari haqida hisobot berishlari va soliqlarni to'lashlari shart bo'lgan qoidalar va tartiblarni belgilaydi. Shunday qilib, soliqqa tortish usullari va jismoniy shaxslarning soliqqa tortish shakllari o'rtasidagi farqlar, asosan, soliqlar qanday hisoblab chiqilishi va undirilishi, shuningdek, soliqlarni kim va qachon to'lashiga taalluqlidir.

Tahlil natijalariga ko'ra aytish mumkinki, soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi soliqlarni yengillashtirish va buxgalteriya hisobi majburiyatlaridan ozod qilish orqali kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi. Biroq, bu tizimda soliq stavkalari yuqori bo'lishi va imtiyozlar cheklangan bo'lishi mumkin. Umumiy soliqqa tortish tizimi esa turli soliq imtiyozlarini taklif qilib, daromad va xarajatlar bo'yicha aniq hisobotlar taqdim etishni talab qiladi, lekin bu murakkab va vaqt talab qiluvchi hisobot tartib-qoidalarini o'z ichiga oladi. Aralash soliqqa tortish tizimi esa soddalashtirilgan va umumiy tizimlarning afzalliklarini birlashtirib, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda

ko'proq erkinlik beradi. Biroq, bu tizimni to'g'ri tushunish va qo'llash murakkab bo'lishi, shuningdek, soliq hisoboti va tartiblarini to'g'ri tanlashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Quyida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish usullari va shakllari o'rtasidagi farqlari keltirib o'tilgan. (1-jadval)

1-jadval

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish usullari va shakllari o'rtasidagi farqlar

	Soliqqa tortish shakllari	Soliqqa tortish usullari
Daromadlarni aniqlash	Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq (JShDS)	Daromadlarga solinadigan soliqlar
Qo'llanilishi	Ko'pchilik mamlakatlarda qo'llaniladi (AQSh va boshqa mamlakatlar)	Turli mamlakatlarda belgilangan tartib asosida undiriladi (Rossiya va boshqa mamlakatlar)
Tariflar	Daromad darajasi va boshqa omillarni inobatga olingan holda soliq stavkalari turlicha belgilangan	Ko'p hollarda progressiv soliq stavkalari qo'llaniladi (bunda daromad oshgani sari soliq stavkasi ham yuqori bo'lishi belgilangan)
Soliq imtiyozlari, chegirmalari va kreditlarini hisobga olish	Soliq imtiyozlari, chegirmalari va kreditlarini hisobga olish uchun soliq deklaratsiyalarini to'ldirish talab etiladi	Soliqlarni hisoblash va too'lash uchun soliq imtiyozlari, chegirmalari va kreditlarini hisobga olish tizimi orqali amalga oshiriladi
Soliq tushumlarini taqsimlash	Soliq stavkalari va belgilangan tartiblarga ko'ra daromadlar taqsimlanadi	Belgilangan muddatlarda soliqlarni too'lash tartibi asosida tashkil etiladi
Afzalliklari	Maxsus soliq rejimlari asosida soliqlarni imtiyozlari va preferensiyalari qo'llaniladi	Soliq tizimini soddaligi va shaffofligi
Kamchiliklari	Soliq to'lovchilarni soliqlarni hisoblash va hisobotlarini taqdim etishda ishtiroki jarayonlarini ko'paytirishi mumkin	Soliqlarni hisoblash va tartiblarni belgilashda o'ziga xos qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlarida jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar asosida soliqqa tortish shakllari va usullari tahlil qilinib, ularning afzalliklari va kamchiliklari o'rganilgan.

Daromadlarni aniqlash jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Turli mamlakatlarda ushbu soliqlarning hisob-kitob va to'lash tartiblari farq qiladi. Bu borada tariflar masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Daromad darajasi va boshqa omillarni inobatga olib, soliq stavkalari turlicha belgilanadi. Ko'p hollarda progressiv soliq stavkalari qo'llaniladi, ya'ni daromad oshgani sari soliq stavkasi ham yuqori bo'lishi belgilanadi. Bu usul, ayniqsa, ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Soliq imtiyozlari, chegirmalari va kreditlarini hisobga olish ham soliqqa tortish jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda soliq imtiyozlari, chegirmalari va kreditlarini hisobga olish uchun soliq deklaratsiyalarini to'ldirish talab etiladi. Bu jarayon soliq solishda aniqlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

Soliq tushumlarini taqsimlash ham davlat moliyasining muhim jihati hisoblanadi. Soliq stavkalari va belgilangan tartiblarga ko'ra daromadlar taqsimlanadi. Bu esa davlatning turli ehtiyojlarini qondirishda muhim o'rin tutadi. Belgilangan muddatlarda soliqlarni to'lash tartibi asosida tashkil etiladi.

Soliqqa tortish shakllari va usullarining afzalliklari va kamchiliklari ham tahlil qilinishi lozim. Afzalliklardan biri maxsus soliq rejimlari asosida soliqlarni imtiyozlari va preferensiyalari qo'llanilishidir. Bunda soliq tizimining soddaligi va shaffofligi ham muhim ahamiyatga ega. Kamchiliklari esa soliq to'lovchilarni soliqlarni hisoblash va hisobotlarini taqdim etishdagi ishtiroki jarayonlarini ko'paytirishi mumkin. Shuningdek, soliqlarni hisoblash va tartiblarni belgilashda o'ziga xos qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortish shakllari va usullarining tahlili shundan dalolat beradiki, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq ko'plab mamlakatlarda muhim o'rin tutadi. Progressiv soliq stavkalari va soliq itiyozlari jamiyatda adolatlikni ta'minlashga yordam beradi. Biroq, soliqlarni hisoblashning murakkabligi va deklaratsiyalarni to'ldirish zarurati ba'zida soliq to'lovchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shaffof va sodda soliq tizimlari esa soliqqa tortish jarayonini samarali va adolatli qilib tashkil etishga yordam beradi.

O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tamoyillarining asosiy jihatlarini quyidagi jadval orqali yaqindan tanishishimiz mumkin. (2-jadval)

2-jadval

O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tamoyillarining asosiy jihatlarini

Tamoyillar	Tavsif	Misollar	Soliq to'lovchiga ta'siri	Izohlar
Barcha turdagi daromadlarni soliqqa tortish	Barcha daromad olgan jismoniy shaxslar uchun soliq to'lashdagi majburiyatlari belgilab berilgan.	Har qanday daromad oluvchilar, ishlayotganlar, tadbirkorlar, kapital daromad oluvchilar va h.k. soliqqa tortilishi.	Soliq bazasining kengayishi, soliq yukining adolatli taqsimlanishi.	Ayrim soliq to'lovchi guruhlar uchun istisnolar bo'lishi mumkin.
Adolatli soliqqa tortish	Soliqlar adolat va tenglik tamoyillariga muvofiq bo'lishi kerak.	Progressiv soliqlar, kam daromadlilarga soliq imtiyozlarini taqdim etilishi.	Soha yukining adolatli taqsimlanishi daromadlar o'rtasidagi tenglikni oshirish.	Progressiv soliq stavkalari daromad darajasiga qarab o'zgarishi mumkin.
Soliq tizimining shaffofligi va ravshanligi	Soliq qonunchiligi aniq va bashoratli bo'lishi va soliq to'lovchilar o'z majburiyatlarini aniq bilishi kerak.	Soliq bazasi, soliq stavkalari, soliqlarni to'lash muddatiga aniq keltirilishi lozim.	Nomuayyanlik va tushunmovchiliklarni kamaytirish, soliq tizimiga ishonchni oshirish.	Soliq qonunchiligini muntazam yangilash va tushuntirish ishlarini olib borish muhim.
O'rnatishda qulaylik va soddalik	Soliq solishning qulay va sodda mexanizmi bo'lishi kerak.	Onlayn deklaratsiya taqdim etish tartibini mavjudligi. Ish beruvchi tomonidan soliqlarni avtomatik ravishda ushlab qolish.	Ma'muriy xarajatlarni kamaytirish va soliq majburiyatlarini bajarishga sarflangan vaqtni qisqartirish.	Elektron xizmatlarni yaratish, deklaratsiyalarni elektron shaklda topshirish.
Samaradorlik va iqtisodiy rag'batlantirish	Soliq tizimi soliqlardan keladigan salbiy iqtisodiy oqibatlarini minimallashtirishi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi kerak.	Belgilangan sohaga sarmoya kiritish uchun soliq imtiyozlari, kichik biznesga soliq yukini kamaytirish.	Sarmoyalarni, innovatsiyalarni va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, iqtisodiy rivojlanishga to'siqni kamaytirish.	Iqtisodiy vaziyatga qarab soliq stavkalarini to'g'rilash imkoni.

O'zbekistonning jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi umumiy tamoyillar va maqsadlarga muvofiq ravishda tashkil etilgan. Bu tizim bir qator muhim xususiyatlarga ega:

Birinchi navbatda, barcha turdagi daromadlarni soliqqa tortish tamoyili jismoniy shaxslar tomonidan olingan har qanday daromadni soliqqa tortishni nazarda tutadi. Bu daromad oluvchilar o'rtasida soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlash maqsadida joriy etilgan. Soliq bazasining kengayishi mamlakat byudjetiga tushumlarni oshiradi.

Adolatli soliqqa tortish tamoyili soliq tizimining adolatli va tenglikka muvofiq bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Progressiv soliqlar va kam daromadlilarga soliq imtiyozlari orqali

daromadlar o'rtasidagi tenglikni oshirishga erishiladi. Bu iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Soliq tizimining shaffofligi va ravshanligi tamoyili soliq to'lovchilarning o'z majburiyatlarini aniq bilishlarini ta'minlaydi. Soliq qonunchiligining aniq va bashoratli bo'lishi soliq tizimiga ishonchni oshiradi. Bu nomuayyanlik va tushunmovchiliklarni kamaytiradi, shuningdek, soliq to'lovchilarning soliqlarni o'z vaqtida va to'g'ri to'lashlarini ta'minlaydi.

O'rnatishda qulaylik va soddalik tamoyili soliq solish jarayonining sodda va qulay bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Elektron deklaratsiyalarni topshirish va avtomatik soliq undirish tizimi ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi va soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratadi.

Samaradorlik va iqtisodiy rag'batlantirish tamoyili soliq tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va salbiy iqtisodiy oqibatlarni minimallashtirishga qaratilgan. Soliq imtiyozlari va kichik biznesga soliq yukini kamaytirish orqali sarmoyalar va innovatsiyalarni jalb qilish maqsad qilib qo'yilgan.

Moslashuvchanlik va adaptatsiya tamoyili soliq tizimining o'zgaruvchan iqtisodiy shartlar va jamiyat talablariga moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Iqtisodiy vaziyatga qarab soliq stavkalarini o'zgartirish va vaqtincha imtiyozlar joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlab turish mumkin.

Keltirilgan tahlil natijalaridan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistondagi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi adolat, tenglik, shaffoflik va samaradorlikka qaratilgan. Bu iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, usullar, shakllar va tamoyillarni O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimida qo'llashning ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkindir:

1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar davlat daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Bu soliqlar orqali davlat o'z xarajatlarini qoplash, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va infratuzilmani rivojlantirish uchun zarur mablag'larni yig'adi.

2. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar turli mamlakatlarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Xususan, XX asrda ko'plab mamlakatlar yuqori daromadlarga nisbatan yuqori stavkalar qo'llanilgan holda progressiv soliqqa tortishga o'tdilar. Bu usul ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan adolatli hisoblanadi va hukumat maqsadlari uchun ko'proq mablag' to'plash imkonini beradi.

3. Vaqt o'tishi bilan soliq tizimiga jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini kamaytirish imkonini beruvchi turli imtiyoz va chegirmalar joriy etildi. Bu imtiyozlar bolalar uchun ajratmalar, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa xarajatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalarini pasaytirish O'zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikka qiziqishni oshirishga yordam beradi. Bu tadbirkorlik faolligini kuchaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirishga olib keladi.

5. Soliq stavkalarini pasaytirish rasmiy tadbirkorlikni norasmiy va yashirin faoliyatga nisbatan ko'proq jozibador qilishi mumkin. Bu yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish va byudjetga soliq tushumlarini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tajribasining ushbu ijobiy jihatlari O'zbekistonda soliq amaliyotini yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu yondashuvlar soliq tizimini adolatli, samarali va ochiq qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Feldshteyn, M. (1971). Tax Policy, Corporate Saving and Investment Behavior in Britain. 5th ed. New York: McGraw-Hill, 672 b.

Haydarov, N. (2007). Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. T.: Akademiya, 79 p.

Internal Revenue Service (IRS) (2024). Federal Income Tax Rates and Tax Benefits for 2024. Washington D.C.: U.S. Department of the Treasury. Available at: <https://www.irs.gov>

Masgreyv, R.A. (1989). Public Finance in Theory and Practice. 5th ed. New York: McGraw-Hill, 672 b.

OECD (2023). Taxing Wages 2022–2023. Paris: OECD Publishing, 420 p. <https://doi.org/10.1787/20744287>

Qiyosov, Sh.U. (2023). Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari. T.: Iqtisod-Moliya, 135 b.